

**“TASDIQLAYMAN”**

O‘zbekiston Respublikasi Turizm va  
madaniy meros vazirligi huzuridagi

Madaniy meros agentligi

Xarid komissiyasi raisi

o‘rinbosari

Sh.Maxmudov

2022-yil 20 - *iyun*



**“KELISHILGAN”**

O‘zbekiston Respublikasi Turizm va  
madaniy meros vazirligi huzuridagi

Madaniy meros agentligi

Xarid komissiyasi

Xarid komissiyasining

2022-yil 20 - *iyun* dagi

Bayoni

## **ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASHGA OID XARID QILISH HUJJATLARI**

---

**Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi Suv ta’minoti muzeyi Chashmayi Ayub  
maqbarasini tamirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish uchun loyiha-smeta  
hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha**

### **ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH**

**TOSHKENT – 2022-YIL**

## **MUNDARIJA**

1. Tanlash ishtirokchisi uchun yo'riqnoma
2. Loyihaning texnik topshirig'i
3. Tanlashning narxiga oid qismi
4. Hujjatlar namuna, shakl va ilovalari

# I. TANLASH ISHTIROKCHISI UCHUN YO‘RIQNOMA

## 1. Umumiy qoidalar

- 1.1. Ushbu xarid qilish hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 22-apreldagi O‘RQ-684-son Qonuni (bundan buyon matnda – Qonun) va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-fevraldagi “Loyihaoldi, loyiha, tender hujjatlari va kontraktlarni ekspertizadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3550-son qarori (bundan buyon matnda – qaror) talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.
- 1.2. Eng yaxshi takliflarni tanlash predmeti: Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi Suv ta‘minoti muzeyi Chashmayi Ayub maqbarasini tamirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha”.
- 1.3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda 975-sonli qarori bilan tasdiqlangan 3-ilovasida 2018 — 2027-yillarda davlat muzeylari binolarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlashning manzilli dasturi 12-bandida nazarda tutulgan Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar asos hisoblanadi.
- 1.4. **Tanlashning boshlang‘ich narhi:** Jami 15% QQS hisobi bilan Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun 17 500 000 (o‘n yetti million besh yuz ming) so‘mni tashkil etadi. Taklifda ko‘rsatilgan narhlar boshlang‘ich narhdan oshmasligi kerak.
- 1.5. Buxoro viloyatida joylashgan “Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi Suv ta‘minoti muzeyi Chashmayi Ayub maqbarasini tamirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish” bo‘yicha texnik topshiriq xarid qilish hujjatlarining texnik qismida qayd etilgan.

## 2. Tanlash tashkilotchisi

- 2.1. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi davlat xaridlari Buyurtmachisi (keyingi o‘rinlarda – “Buyurtmachi”) hisoblanadi. Buyurtmachi manzili: 100084, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Amir Temir shoh ko‘chasi 107-B uy.
- 2.2. Buyurtmachi bog‘lovchi shaxsi: Abdiraimov Qurbonali Jo‘rayevich – Madaniy merosni asrashga doir ishlarni rejalashtirish va tashkil qilish bo‘limi bosh mutaxassisi. +998 71 205 06 00 (542), +998 90 909 00 62.
- 2.3. Tanlash Buyurtmachi tomonidan tuzilgan, kamida besh nafar a‘zodan iborat bo‘lgan xarid qilish komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

## 3. Tanlash ishtirokchilari

- 3.1. Xarid qilish tartib-taomillarida mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar, har qanday yuridik shaxslar, shu jumladan kichik biznes subyektlari ishtirok etishi mumkin. 4.2-bandda keltirilgan yuridik shaxslar bundan mustasno.

## 4. Tanlash tartibi

- 4.1. Xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etish uchun tanlash ishtirokchisi:
  - tanlash shartlari bilan tanishish uchun [etender.uzex.uz](http://etender.uzex.uz) maxsus axborot portaliga joylashtirilgan xarid qilish hujjatlarining elektron versiyasini olishi (yuklab olishi);
  - xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq taklif taqdim etishi lozim.

- 4.2. Quyidagi ishtirokchining xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishiga ruxsat berilmaydi:
- qayta tashkil etilayotgan;
  - tugatilayotgan yoki bankrot bo'lgan;
  - O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi bilan sud yoki arbitraj muhokamasi holatida bo'lgan;
  - Insofsiz ijrochilarning yagona reestrda bo'lgan;
  - Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorligi mavjud bo'lgan;
  - Imtiyozli soliq tartibini taqdim etadigan va/yoki moliyaviy operatsiyalarni o'tkazishda axborot oshkor etilishi va berilishini nazarda tutmaydigan davlatlarda yoki hududlarda (offshor zonalarida) ro'yxatga olingan va banklarda hisob raqamlariga ega bo'lgan;
  - Ta'sis hujjatlari, moliyaviy qatnashish, holding shaklida va boshqa shakllarda ifodalangan bir-biriga bevosita tashkiliy-huquqiy yoki moliyaviy bog'liqlikda bo'lgan.
- 4.3. Xarid komissiyasi ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatadi, agarda:
- u to'g'risida Insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd mavjud bo'lsa;
  - unda soliqlar va yig'imlarni tanlash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa;
  - o'ziga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari joriy etilgan bo'lsa;
  - ishtirokchi xarid qilish hujjatlarining malaka, texnik va tijorat talablariga javob bermasa;
  - ishtirokchi raqobatga qarshi harakatlarni sodir etsa yoki qonunchilikni buzgan holda manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarsa, shuningdek affillanganlik hollari aniqlansa.

## **5. Tanlash tili, o'lchov birligi**

- 5.1. Tanlash ishtirokchilarning taklifi, shuningdek, ishtirokchi va Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladigan unga tegishli bo'lgan **barcha yozishmalar va hujjatlar o'zbek tilida** bo'lishi kerak. Tanlash ishtirokchilarining taklifi o'zbek tilida aniq tarjimasini ilova qilish sharti bilan boshqa tilda ham bo'lishi mumkin. Bittadan ortiq til ishlatilganda, tanlash ishtirokchilarining taklifi matnida nomuvofiqliklar mavjud bo'lsa, o'zbek tili ustuvorlik qiladi. Texnik hujjatlarni ingliz va rus tilida taqdim etishga ruxsat beriladi.

## **6. Tanlash ishtirokchilarining taklifi va uni rasmiylashtirish tartibi**

- 6.1. Portalda e'lon qilingan tanlash ishtirokchilari e'londa va tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan tartibda tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan manzil bo'yicha takliflarni elektron tarzda kiritadi.
- 6.2. Tanlash ishtirokchilarining takliflari xarid.uzex.uz portalida ko'rsatilgan muddatgacha qabul qilinadi.
- 6.3. Tanlash ishtirokchilariga taklifining amal qilish muddati takliflar taqdim etilgan kundan boshlab kamida 60 kuni tashkil etishi kerak.
- 6.4. Tanlash ishtirokchilari tanlash o'tkaziladigan kunda tanlashda tayyorlanadigan (yetkazib beriladigan) mahsulotning namunalarini xarid komissiyasiga tanishib chiqish uchun taqdim etadilar.

## **7. Takliflarni taqdim etish muddatini uzaytirish**

- 7.1. Zarur hollarda, Buyurtmachi xarid qilish tartib-taomillarining barcha ishtirokchilariga tadbiq etiladigan takliflarni taqdim etish muddatlarini uzaytirish, shuningdek, qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari takliflarining amal qilish muddatini muayyan davrga uzaytirish to'g'risidagi taklif bilan ularga murojaat qilishi mumkin.
- 7.2. Tanlash ishtirokchilarining takliflarini taqdim etish muddatlarini uzaytirish to'g'risidagi e'lon maxsus axborot portaliga joylashtiriladi va boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

## **8. Ta'minot hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish**

- 8.1. Zarur hollarda, Buyurtmachi xarid komissiyasi bilan kelishgan holda xarid qilish hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega.
- 8.2. Xarid qilish hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qaror tanlashda ishtirok etish uchun takliflar taqdim etish muddati tugaydigan sanadan bir ish kundan kechiktirmay qabul qilinishi mumkin.

## **9. Tanlash ishtirokchilarining takliflar baholash mezonlari**

- 9.1. Xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida tanlash g'olibini aniqlash uchun xarid komissiyasi rad etilmagan takliflarni baholashni amalga oshiradi.
- 9.2. Tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi axborotning ishonchsizligi aniqlangan taqdirda, xarid komissiyasi bunday ishtirokchini chetlatishga haqli.
- 9.3. Tanlash ishtirokchilarining takliflarini baholash va tanlash g'olibini aniqlash xarid hujjatlarida belgilangan mezonlar asosida amalga oshiriladi (1-son ilova).
- 9.4. Taklifni kiritgan tanlash ishtirokchisi Qonun va qarorda belgilangan talablarga mos kelmasa yoki tanlash ishtirokchisining taklifi xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq kelmasa, xarid komissiyasi taklifni rad etadi.
- 9.5. Tanlash ishtirokchilari turli valyutalarda takliflarni kiritsa, baholash paytida takliflar summolari tanlash ishtirokchilari taklifining narx qismi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo'yicha yagona valyutaga hisob-kitob qilinadi.
- 9.6. Xarid hujjatlari va taklifda ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif qilgan tanlov ishtirokchisi g'olib deb topiladi.
- 9.7. Xorijiy va mahalliy ishtirokchilarning narxlarini to'g'ri taqqoslash uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda baholash chog'ida tegishli xarajatlar (soliqlar, bojxona to'lovlari va boshqa majburiy to'lovlar) hisobga olinadi.

## **10. Tomonlarning javobgarligi va mahfiylikka rioya qilish**

- 10.1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlik quyidagilar zimmasiga yuklatiladi:
  - komissiya raisi va a'zolari, shuningdek takliflarni o'rganish uchun tashkil etilgan ishchi guruh a'zolari, axborotni oshkor qilgani, ishtirokchilar, komissiyaning qolgan a'zolari va jalb etilgan ekspertlar bilan til biriktirilgani, shuningdek, boshqa noqonuniy harakatlari uchun;

## **11. Boshqa shartlar**

- 11.1. Tanlashda ishtirok etish istagini bildirgan ishtirokchilar tanlash jarayoniga doir tushuntirish olish uchun xarid komissiyasiga va/yoki ishchi organga murojaat qilish huquqiga ega.
- 11.2. Tanlash quyidagi hollarda o'tkazilamagan deb topiladi:
  - Tanlashda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki hech kim ishtirok etmagan bo'lsa;
  - Takliflarni ko'rib chiqish natijalari asosida xarid komissiyasi xarid qilish hujjatlari talablariga mos kelmasligi sababli barcha takliflarni rad etgan bo'lsa.
- 11.3. Buyurtmachi g'olib bo'lgan taklif akseptiga qadar istalgan vaqtda davlat xaridini bekor qilish huquqiga ega. Davlat xaridi bekor qilingan taqdirda buyurtmachi bunday qaror qabul qilinganidan keyin uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimi orqali maxsus axborot portalida mazkur qarorning asoslantirilgan sabablarini e'lon qiladi.

## **12. Shartnoma tuzish**

- 12.1. Tanlash natijalariga doir shartnoma tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida tuziladi.
- 12.2. Xarid komissiyasi qarori bilan tanlash g'olibi deb e'lon qilingan tanlash ishtirokchisi Buyurtmachidan tegishli habarnoma oladi.
- 12.3. G'olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib g'olib tomonidan taklif etilgan narx bo'yicha (bundan zaxiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lgan hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishni rad etishi mumkin.

## II. LOYIHANING TEXNIK TOPSHIRIG'I

| № | Asosiy ma'lumotlar            | Ishtirokchiga   |
|---|-------------------------------|---|
| 1 | Moliyalashtirish manbasi      | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda 975-sonli qarori bilan tasdiqlangan 3-ilovasida 2018 — 2027-yillarda davlat muzeylari binolarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlashning manzilli dasturining 12-bandida nazarda tutulgan Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar asos hisoblanadi   |
| 2 | Ob'ektni joylashuvi           | Buxoro viloyati, Buxoro shahari, Xo'ja G'unjoriy MFYda joylashgan Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi Suv ta'minoti muzeyi Chashmayi Ayub maqbarasi  |
| 3 | To'lov shartlari              | Shartnoma umumiy summasining 30 foizi miqdorida oldindan to'lov O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida ro'yxatga olingan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni mobaynida amalga oshiriladi.<br>Shartnoma bo'yicha ishlar bajarilganidan so'ng hamda yetkazib berilgan ish va xizmat tekshiruvidan o'tkazilib, qabul komissiyasi tomonidan qabul qilinib qabul qilish dalolatnomasi imzolanganidan so'ng umumiy summaning 70 foizi 10 (o'n) bank kuni ichida hisob varaq-faktura asosida to'lanadi.                     |
| 4 | Ishtirokchilar uchun talablar | Nuqson dalolatnomasi asosida Obyektning joylashgan joyiga chiqqan holda Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, Loyihachi ishlarni o'zining kuchlari va yoki jalb qilingan kuchlar orqali "Madaniy meros ob'yektlarini loyiha-smeta hujjatlarining tarkibi, ishlab chiqish tartibi va tasdiqlash haqida"gi Shaharsozlik norma qoidalari va qo'llanmalari (ShNQ), Madaniy meros yodgorliklarini saqlash, ta'mirlash, tiklash uchun me'yoriy smeta normalari hamda ish turlarini baholash hujjati (VSRSN-2017) asosida ishlab chiqish |
| 5 | To'lov valyutasi              | So'm, O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi   |
| 6 | Yetkazib berish shartlari     | Ijrochining hisobidan   |
| 7 | Yetkazib berish muddatlari    | 20 kalendar kundan ortiq bo'lmagan muddatda (Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish muddati tomonlar kelishuviga asosan qonunchilikda belgilangan tartibda uzaytirilishi mumkin, lekin 40 kalendar kundan ortiq bo'lmagan muddatda).  |
| 8 | Taklif amal qilish muddati    | 60 kalendar kuni  |

## Buxoro viloyati Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi Suv ta‘minoti muzeyi Chashmayi Ayub maqbarasi Nuqson dalolatnomasi

Бухоро шаҳар, Хўжа Гунжорий МФЙ, “Сомонийлар” боғида жойлашган Бухоро давлат музей-қўриқxonаси сув таъминоти музейи Чашмай Аюб мақбарасининг  
бугунги кундаги ҳолати бўйича  
**НУҚСОН ДАЛОЛАТНОМАСИ**

« 22 » « 04 » 2022 йил




Бухоро шаҳри



Биз қуйидаги ишчи гуруҳ аъзолари иштирокида 2022 йилнинг 22 апрель куни Бухоро шаҳар, Хўжа Гунжорий МФЙ, “Сомонийлар” боғида жойлашган Чашмай Аюб мақбарасининг бугунги кундаги ҳолати ўрганилиб, қуйидаги дастлабки иш ҳажмларини олиб бориш талаб этилишини аниқладик:

| № | Бажарилган ишлар ҳажмининг номи   | Ўлчов бирлигида | Иш ҳажми |
|---|---|-----------------|----------|
| 1 | Ички деворларини шўрлаган қисмларини тозалаб қайта реставрация қилиш(оклаш)               | кв.м            | 900      |
| 2 | Сув кетиш тазарини очиб реставрация ёки консервация қилиш                                 | дона            | 1        |
| 3 | Ташқи деворларнинг ангафларини реставрация қилиш  | кв.м            | 200      |
| 4 | Гумбазни ангафлаш   | кв.м            | 100      |
| 5 | Мақбара атрофига терилган известнякларни таъмирлаш  | кв.м            | 30       |
| 6 | Мақбара ҳовлисига ҳар хил тошлардан терилган майдонларни известняк плиткаларга алмаштириш | кв.м            | 500      |

*Изоҳ: Мазкур нуқсон далолатномаси дастлабки визуал кузатув натижалари асосида ишлаб чиқилган бўлиб, объектда лойиҳалаш ишларини бошлашдан олдин лойиҳачи ташкилот билан биргаликда батафсил нуқсон далолатномаларини тузиш лозим.*

Бухоро вилоятидаги маданий мерос объектларида илмий-техник тадқиқотлар ўтказиш, дастлабки нуқсон далолатнома ва техник топшириқларни ишлаб чиқиш бўйича илмий-техник гуруҳи аъзолари:

Ш.Махмудов   
З.Қиличев   
Б.Бобомуродов   
Т.Бобоев   
Н.Ҳамроев \_\_\_\_\_

М.Воҳидов   
Р.Саидов \_\_\_\_\_  
Ш.Шарофиддинов   
А.Жўраев 












**Бухоро вилояти Бухоро давлат музей-қо‘риқхонаси Сув та‘миноти музеи  
Чашмайи Аюб мақбараси Техник топшириғи**

**ЧАШМАИ АЮБ МАҚБАРАСИНИ ТАЪМИРЛАШ-ТИКЛАШ БЎЙИЧА ТЕХНИК  
ТОПШИРИҒИ**

| №  | Асосий маълумотлар ва талаблар рўйхати   | Асосий маълумотларнинг мазмуни ва талаблари  |
|----|--|--|
| 1. | Сарлавҳа сифатида объект номи  | Бухоро шаҳар, Хўжа Ғунжорий МФЙ, “Сомонийлар” боғида жойлашган Бухоро давлат музей-қўриқхонаси сув таъминоти музеи Чашмайи Аюб мақбараси.  |
| 2. | Бажариладиган иш турлари (консервация, реставрация, ободонлаштириш, қўшимча қурилиш, замонавий мақсадлар учун қисман мослаштириш)  | Мақбаранинг ички деворларини шўрлаган қисмларини тозалаб қайта реставрация қилиш яъни оклаш, сув кетиш тазарини очиб реставрация ёки консервация қилиш, ташки деворларнинг ангафларини реставрация қилиш, гумбазни ангафлаш, мақбара атрофига терилган известияларни таъмирлаш ва Мақбара ховлисига ҳар хил тошлардан терилган майдонларни известияк плиткаларга алмаштириш. |
| 3. | Қурилиш майдончасининг характеристикалари:<br>- ташки ҳавонинг ҳарорати<br>- ҳудуднинг сейсмиқлиги<br>- шамол босимининг стандарт қиймати<br>- стандарт қор юқи<br>- музлаш чуқурлиги<br>- ер ости сувлари | Бухоро вилояти, <del>Бухоро шаҳри</del><br>-22 °С, +49,5 °С;<br>4-6 балл;<br>Шамол тезлиги 8-25 км/соат<br>Ер юзасидан 3-12 метр чуқурликда сувлари мавжуд;<br>Мухандислик-геологик тадқиқотилар маълумотларига кўра аниқланиши керак.   |
| 4. | Ҳудудни ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштиришга қўйиладиган талаблар  | Музейнинг кўринишига, тарихий бадий қийматига зарар етказмаган ҳолда ҳудудни ободонлаштириш ишларини амалга ошириш талаб этилади.  |
| 5. | Конструктив ечимлар, юк кўтарувчи ва бинони ўраб турган конструкцияларга қўйиладиган материаллар бўйича асосий талаблар, ҳамда йнгинга чилдамлик даражаси.   | Бино пойдевори, томи ва деворларини мустаҳкамлаш ишлари илмий-техник тадқиқот хулосалари натижаларига асосан бажарилиши керак. Объект ёнгин хавфсизлиги талабларига асосан жиҳозланиши шарт.   |

Бухоро вилоятидаги маданий мерос объектларида илмий-техник тадқиқотлар ўтказиш, дастлабки нуқсон далолатнома ва техник топшириқларини ишлаб чиқиш бўйича илмий-техник гуруҳи аъзолари:

|               |   |                |   |
|---------------|---|----------------|---|
| Ш.Махмудов    |  | М.Воҳидов      |  |
| З.Қиличев     |  | Р.Саидов       |  |
| Б.Бобомуродов |  | Ш.Шарофиддинов |  |
| Т.Бобоев      |  | А.Жўраев       |  |
| Н.Ҳамроев     |  |                |   |

**Ishtirokchilar va takliflar malakasini baholash tartibi va mezonlari**

Xarid qilish tartib-taomilining amalga oshirish uchun ruxsat berilgan ishtirokchilarning dastlabki malaka tanlovi tartibi va mezonlari.

Tanlash ishtirokchilarining texnik baholashdan o'tmagan takliflari (ball qo'yish natijalari bo'yicha 0 balla to'plaganlar) chetlashtiriladi.

Tanlash ishtirokchilari jami 100 ballik baholash tizimidan kamida 60 ball to'plashlari zarur.

**Tanlash ishtirokchilarini baholash mezonlari**

| <b>№</b> | <b>Mezon</b>   | <b>Baholash</b>  | <b>Toifa vazni (Ball)</b> | <b>Izoh</b>   |
|----------|--|--|---------------------------|---|
| 1        | Ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilganligi   | Lozim darajada / lozim bo'lmagan darajada<br><i>(ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi)</i> | 5                         | Lozim bo'lmagan darajada  |
| 2        | Ishtirokchining moliyaviy ko'rsatkichlari taqdim etilganligi   | Bor / yo'q   | 10                        | Taqdim etilmagan bo'lsa, ishtirokchi baholanmaydi   |
| 3*       | Qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida ishtirokchining holati  | Xa / yo'q<br><i>(ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi)</i>                                 | 5                         | "Xa" bo'lsa, ishtirokchi chetlashtiriladi   |
| 4        | Ishtirokchining Buyurtmachi bilan sud yoki hakamlik muhokamasi bosqichidagi holati   | Xa / yo'q<br><i>(ishtirokchining kafolat xati va Buyurtmachi ma'lumoti asosida amalga oshiriladi)</i>        | 5                         | "Xa" bo'lsa, ishtirokchi chetlashtiriladi   |
| 5        | Ishtirokchi va ishtirokchi bankining offshor zonalarda ro'yxatdan o'tkazilganligi  | Xa / yo'q  | 5                         | Banklari offshor zonalarda ro'yxatdan o'tgan ishtirokchi bo'lsa, ishtirokchi chetlashtiriladi |
| 6        | Ishtirokchi "Insofsiz" ijrochilarning yagona reestrda mavjudligi   | Mavjud / mavjud emas   | 5                         | Mavjud bo'lsa, ishtirokchi chetlashtiriladi   |
| 7*       | Budjetga qarzdorligi yo'qligi to'g'risidagi ma'lumot   | Mavjud / mavjud emas   | 5                         | Mavjud bo'lsa, ishtirokchi baholanmaydi   |
| 8*       | Tanlash ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'yimaslik bo'yicha kafolat xati                          | Bor / yo'q   | 5                         | Taqdim etilmagan bo'lsa, ishtirokchi chetlashtirilishi mumkin                                 |
| 9*       | Texnik jihatdan baholash yani Texnik topshiriqqa muvofiqligi (Mosligi)   | Mos / Mos emas   | 25                        | Mos bo'lmasa, ishtirokchi baholanmaydi  |
| 10*      | Ishtirokchi malakasi yani O'tgan uch yil mobaynida amalga oshirilgan shu kabi ishlarda ishtirokchining tajribasi (Portfolio) | Bor / yo'q   | 30                        | Taqdim etilmagan bo'lsa, ishtirokchi baholanmaydi   |

**\* Ishtirokchilar tomonidan majburiy taqdim etiladigan ma'lumotlar**

Ishtirokchining blankasida

2022-yil \_\_\_\_ - \_\_\_\_\_dagi  
\_\_\_\_\_ -son

**O‘zbekiston Respublikasi  
Madaniy meros agentligiga**

**KAFOLAT XATI**

Ushbu xat bilan \_\_\_\_\_ MCHJ (OK, OAJ, XK)  
quyidagilarni tasdiqlaymiz:

- Qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida emasligini;
- O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi bilan sud yoki arbitraj muhokamasi holatida emasligini;
- Insofsiz ijrochilarning yagona reyestirida mavjud emasligi;
- Namunaviy shartnoma loyihasi shartlariga roziligimizni;
- Budjet, soliq va boshqa majburiy to‘lovlardan qarzdorligi yo‘qligini tasdiqlaymiz;
- Avval tuzilgan shartnomalar bo‘yicha lozim darajada bajarilmagan majburiyatlari yo‘qligini tasdiqlaymiz.

Imzolar:

Rahbarning F.I.SH.

Bosh buxgalterning (moliya bo‘limi boshlig‘i) F.I.SH.

Yurist F.I.SH.

Muhr o‘rni

## Ishtirokchining blankasida

2022-yil \_\_\_\_ - \_\_\_\_ dagi  
\_\_\_\_\_-son

**O‘zbekiston Respublikasi  
Madaniy meros agentligiga**

Tanlash ishtirokchisi to‘g‘risida umumiy ma’lumot

|   |  |  |
|---|--|--|
| 1 | Tashkiliy-huquqiy shaklini ko‘rsatgan holda yuridik shaxsning to‘liq nomi  |  |
| 2 | Ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risida ma’lumot (ro‘yxatga olish sanasi, ro‘yxatga olish raqami, ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ nomi) |  |
| 3 | Yuridik manzil   |  |
| 4 | Bog‘lanish uchun telefon, e-mail   |  |
| 5 | To‘liq bank rekvizitlari   |  |
| 6 | Faoliyatning asosiy yo‘nalishlari  |  |
| 7 | Qurilish-pudrat tashkilotining reytingi  |  |

Talab etilayotgan yoki shunga o‘xshash xizmatni amalga oshirish tajribasi haqida ma’lumot

| T/r | Yetkazib berish predmeti nomi | Xaridorning nomi, uning manzili va aloqa ma’lumotlari | Yetkazib berish sanasi | Izoh |
|-----|-------------------------------|---|------------------------|------|
|     |                               |   |                        |      |

Qo‘shimcha ma’lumotlar: bajariladigan ishlar hajmi, mijozlar fikri, shunga o‘xshash mahsulot va xizmatlar bo‘yicha tasdiqlangan ma’lumotlar, portfolio va boshq.

Rahbarning F.I.SH imzo

Muhr o‘rni

## TANLASH ISHTIROKCHISINING MOLIVAVIY HOLATI

(tanlash ishtirokchisining nomi)

## 1. MOLIVAVIY MA'LUMOTLAR

o'zb.so'm

| Satrlar nomi   | Ohirgi uch yil uchun ma'lumotlar |         |         |
|--|----------------------------------|---------|---------|
|  | 2020 y.                          | 2021 y. | 2022 y. |
| <b>Balansdan olingan ma'lumotlar</b>                         |                                  |         |         |
| I. Uzoq muddatli aktivlar                                    |                                  |         |         |
| Asosiy vositalar   |                                  |         |         |
| Nomoddiy aktivlar  |                                  |         |         |
| Uzoq muddatli investitsiyalar                                |                                  |         |         |
| Shu jumladan, kapital qo'yilmalar                            |                                  |         |         |
| II. Joriy aktivlar   |                                  |         |         |
| Tovar-moddiy zaxiralari                                      |                                  |         |         |
| Shu jumladan, ishlab chiqarish zaxiralari                    |                                  |         |         |
| Debitorlar   |                                  |         |         |
| Pul mablag'lari  |                                  |         |         |
| Passivlar  |                                  |         |         |
| I. O'z mablag'lari manbaalari                                |                                  |         |         |
| Shu jumladan:  |                                  |         |         |
| Ustav kapitali   |                                  |         |         |
| Taqsimlanmagan foyda   |                                  |         |         |
| II. Majburiyatlar  |                                  |         |         |
| Uzoq muddatli majburiyatlar                                  |                                  |         |         |
| Joriy majburiyatlar  |                                  |         |         |
| Shu jumladan,  |                                  |         |         |
| Joriy kreditorlik qarzdorligi                                |                                  |         |         |
| Muddati o'tgan kreditorlik qarzdorligi                       |                                  |         |         |
| <b>Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotdan ma'lumot</b> |                                  |         |         |
| Mahsulotni sotishdan tushgan sof foyda                       |                                  |         |         |
| Daromad solig'ini to'lashgacha bo'lgan foyda                 |                                  |         |         |
| Sof foyda  |                                  |         |         |

Balans foydasi \_\_\_\_\_

Rahbar \_\_\_\_\_

Bosh hisobchi \_\_\_\_\_

Ishtirokchi davlat soliq inspeksiyasi (xorijiy yuridik shaxslar uchun boshqa vakolatli organlar) tomonidan qabul qilingan moliyaviy hisobotlar va soliq hisob-kitoblarini nusxalarini (balans hisobotlari, moliyaviy natijalar) ilova qilishi shart. Boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, 4-son shakldagi ma'lumotlar o'zbek so'mida ko'rsatiladi.

## Ishtirokchining blankasida

2022-yil \_\_\_\_ - \_\_\_\_dagi  
\_\_\_\_\_-son

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Madaniy meros agentligiga**

**KAFOLAT XATI**

\_\_\_\_\_ (tanlash ishtirokchisi nomi) rahbari va xodimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaslikka, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaslikka, tovlamachilik qilmaslikka, pora sifatida pul yoki mulkiy naf taklif etmaslikka, bevosita yoki bilvosita pora berishga rozilik bermaslikka yoki pora, xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yohud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga hilof ravishda foydalanish, huddi shuningdek bunday nafni qonunga hilof ravishda taqdim etish uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf taklif etmaslikka kafolat beraman.

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid keladigan hatti-harakatlarini, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etish faktlarga duch kelgan taqdirda, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali habardor qilishga kafolat beraman.

- “1167” ishonch telefoni;

Sana: 2022-yil \_\_\_\_ - \_\_\_\_

\_\_\_\_\_ vakolatli shaxsning imzosi

\_\_\_\_\_ (vakolatli shaxsning F.I.SH. va lavozimi).

Muhr o‘rni                      sana

## “TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi Turizm va  
madaniy meros vazirligi huzuridagi  
Madaniy meros agentligi  
Xarid komissiyasi raisi  
o‘rinbosari

\_\_\_\_\_ Sh.Maxmudov

2022-yil \_\_-\_\_\_\_\_

## “KELISHILGAN”

O‘zbekiston Respublikasi Turizm va  
madaniy meros vazirligi huzuridagi  
Madaniy meros agentligi  
Xarid komissiyasi

Xarid komissiyasining  
2022-yil \_\_-\_\_\_\_\_dagi  
Bayoni

# ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASHGA OID XARID QILISH HUJJATLARI

---

**Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi Suv ta’minoti muzeyi Chashmayi Ayub  
maqbarasini tamirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish uchun loyiha-smeta  
hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha**

## ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH